

DARSLARNI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

**Gʻaybullayeva Madina Habibullo qizi, Buxoro davlat universitetining
pedagogika instituti magistri**

Anotatsiya. Ushbu maqolada darslarni kuzatish va tahlil qilishda nimalarga eʼtibor berish kerakligi, darslarni kuzatish va tahlil qilishning maqsad va vazifalari, dars tahlil qilishning bir necha turlari keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: dars, tahlil, kuzatish, didaktik tahlil, metodik tahlil, tahlil maqsadi

НАБЛЮДЕНИЕ И АНАЛИЗ УРОКА

**Гайбуллаева Мадина Хабибулло кизи, магистр педагогического
института Бухарского государственного педагогического института**

Аннотация В данной статье описано, на что следует обращать внимание при наблюдении и анализе уроков, цели и задачи наблюдения и анализа уроков, а также несколько видов анализа урока.

Ключевые слова: урок, анализ, наблюдение, дидактический анализ, методический анализ, цель анализа.

OBSERVATION AND ANALYSIS OF THE LESSON

Gaibullaeva Madina Khabibullo kizi, Master of the Pedagogical Institute of the Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation This article describes what you should pay attention to when observing and analyzing lessons, the goals and objectives of observing and analyzing lessons, as well as several types of lesson analysis.

Key words: lesson, analysis, observation, didactic analysis, methodical analysis, purpose of analysis.

Kirish. Dars tahlili pedagogik mahoratni oshirishning eng asosiy yoʻli va taʼlim samaradorligini oshirishning omili hisoblanadi. Taʼlim muassasalaridagi oʻquv mashgʻulotlari mazmunini tahlil qilish bevosita taʼlim- tarbiya jarayonini toʻgʻri tashkil etish, taʼlim oluvchilarning oʻzlashtirish darajalarini oshirishdan iboratdir. Oʻquvchilarni oʻqitish va tarbiyalashning zamonaviy nazariyasini amaliyotga joriy etish asosida oʻquv jarayonini takomillashtirishning eng muhim omili darsni

pedagogik kuzatish va tahlil qilish hisoblanadi bundan tashqari darslarni tahlil qilish orqali o'qituvchilar o'z pedagogik mahoratni oshirish va yo'l qo'yilgan xatò va kamchiliklarni to'ldirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Asosiy qism. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad professor-o'qituvchilarning amaliy-metodik faoliyatini o'rganish, o'qituvchilik mas'uliyatini oshirish, dars samaradorligiga erishish iborat.

Darslarni kuzatish va tahlil qilishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- dars kuzatuvchilar tomonidan ta'lim muassasasida o'qituvchi ishiga baho berish;
- dars jarayonining dars o'tish bosqichlariga mosligini kuzatish;
- kuzatuvchilar tomonidan dars o'tayotgan o'qituvchiga amaliy-metodik yordamlar berilishiga erishish;
- ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;
- o'qituvchilar o'zaro bir-birlarining pedagogik usul va uslublarini o'rganishiga da'vat qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish.

O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishida quyidagilarga e'tibor qaratiladi.

- 1) darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'qituvchidan mavzuning ishchi dastur va taqvimiy rejaga mosligiga e'tibor berish, dars ishlanmasi, turli didaktik tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollarni tayryolash talab etiladi;
- 2) darsga davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga mos ravishda aniq maqsad qo'yish;
- 3) dars o'tiladigan xonani tayyorlash, doskaning tozaligi, bo'r, latta yoki markerlarni tayyorlash, vidioproektor, elektron doskaning tayyorligiga e'tibor qaratish;
- 4) mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomoni yo'naltirish; ko'rgazmalilik va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligiga, jonli va ravon tilda ochib berilishiga e'tibor qaratish;
- 5) o'quv dasturi asosida mavzuga ajratilgan soatlarning mosligi, o'quvchining yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatini hisobga olib, ularni o'ylashga, izlanishga

undashi, ijodkorlik, uslubiy mahorat, ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalaridan foydalanish;

Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi

- 1) Dars kuzatuvchining maqsadi;
- 2) Dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish;
- 3) Dars jarayonida o'qituvchining dars o'tish bosqichlariga amal qilish;
- 4) Dars samaradorligi va o'qituvchining ish faoliyatini yanada yaxshilashga oid dars kuzatuvchining tahlillari hamda taklif va mulohazalari.

Pedagogik odob, o'zaro hurmat va bir-birini tushungan holda dars kuzatuvda ishtirok etganlar yuqorida tavsiya etilgan texnologik yondashuv asosida o'z fikrlarini oshkora bildirganlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har qanday tajribali, bilimdon, uzoq yillik pedagogik faoliyatda samarali ishlab kelayotgan mutaxassisda ham ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanib qoladi. O'qituvchining yoshi, tajribasini hurmat qilib, uni aytib o'tmaslik, o'qituvchining keyingi o'tadigan darslarini samarali bo'lishiga qisman bo'lsada, to'sqinlik qilishi mumkin.

Chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalarga muvofiq o'qituvchining ish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish yetuk hamda raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi

Xulosa. Dars tahlili o'qituvchining ish faoliyatini o'rganish, fan asoslarini o'quvchilar qanday darajada o'zlashtirayotganligini aniqlash va davlat o'quv dasturi materiallarining reja asosida bajarilishini nazorat etishning asosiy omili hisoblanadi. Darslarni ilmiy, metodik, didaktik va umumiy pedagogik, psixologik jihatlariga bo'lib tahlil etish dars tahliliga aniqlik kiritadi, uni mukammallashtiradi hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga mukammal baho berish imkonini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Умаров А. С., Рахимов А. К., Мирзаева Н. А. ДАРС СИФАТИНИНГ ТАХЛИЛИ–ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ МЕЗОНИ //ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 80-88.

2. Амонов М. Н., Хусенова С. С. РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДЕТЕЙ //СОВРЕМЕННОЕ ДЕТСТВО: ЗДОРОВЬЕ,

РАЗВИТИЕ, БЕЗОПАСНОСТЬ. – 2021. – С. 137-140. Amonov M. N. The problems of designing professional skills and independent training of future teachers in Uzbekistan //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 22-26.

3. Амонов М. Н. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕДЖЕЙ //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 9-14.

4. Amonov M. O ‘QUVCHILARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI VA MEZONLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

5. Жураев Б. Т. и др. O‘ZARO DARSLARNI TAHLIL QILISH KASBIY MAHORATNI OSHIRISHNING VOSITASI SIFATIDA: Jurayev Bobomurod Tojiyevich, Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi G‘aybullayeva Madina Habibullo qizi, Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti magistri //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6. – С. 198-201.

6. G‘aybullaeva M. DARS TAHLILI PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHNING VOSITASI SIFATIDA //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 836-840.

7. Мирзаев И. Дарс таҳлили. / Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи», 1985.

8. Олимов Ш.Ш. Некоторые вопросы организации урока на основании педагогических технологий //Молодой ученый. – 2013. – №. 5. – С. 752-754.